



GLOBAL XAVF - AXBOROT XURUJI

Tolipov Sardorjon Abduvali o'g'li¹, Mamajonov Ibrohim Olimjon o'g'li²

¹O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Umumqo'shin fakulteti 4-bosqich kursanti

²O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Umumqo'shin fakulteti 4-bosqich kursanti, "Vatan tayanchi" ilmiy tadqiqot guruhi sardori, yosh tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7192432>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 13th October 2022

KEY WORDS

Insoniyat, xavf, globallashuv, internet, axborot xuruji, tahdid, zamonaviy qurol, din, terrorizm, g'oya, ma'naviyat, ommaviy madaniyat

ABSTRACT

Mazkur maqolada bugungi globallashuv davrida o'zining ta'sir qilish xavfi yuqoriligi bilan butun insoniyatni tashvishga solayotgan, axborot xuruji hamda internet orqali tarqatiladiga buzginchi guruhlarining g'oylari keltirilgan. Shu bilan birga zamonaviy qurol nomini olgan axborot tahdidi yoritilgan.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyo hamjamiyatida yangidan-yangi tahdid va xurujlarning avj olishi barchamizni havotirga solmoqda. Ko'plab mamlakatlarda esa bu xuruji natijasida favqulotda vaziyatlar sodir bo'lmoqda.

Insoniyat har doim turli xil ziddiyat va havotirlar girdobida yashab kelgan. Masalan, o'z boshidan kechirgan keng ko'lamdagi jahon urushlari, yadro qurollarining yirik miqyosdagi xavfini, turli tabiiy hamda texnogen fojialarni boshidan o'tkazgani va ayni vaqtda esa ularning bugun ham davom etayotgani barchamizga ayon. Bugun insoniyat o'zining ta'sir kuchi bilan yuqorida keltirilgan turli-tuman xavflardan kam bo'lmagan globallashuvining ko'plab xavf-xatarlariga duch kelmoqda. Hozirgi globallashuv jarayonida zamonaviy qurol tusuni olgan turli xil axborot xuruji insoniyat hamda millat xavfsizligi uchun yuksak darajada o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay ko'plab mamlakatlarni tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lmoqda. Birgina axborot dunyosi orqali kirib kelayotgan tahdidlarning ko'pligi barchamizga ma'lumdir.

Internet tarmog'i orqali mafkuraviy tahdidlar, ma'naviy tahdidlar, axborot xuruji shu bilan birga ommaviy madaniyat ko'rinishidagi zamonaviy tahdidlar uyushtirib olib borilmoqda. Bu tahdidlar ortida esa o'zga mamlakatlarning moddiy manfaati yotadi.

Islom Karimov o'z asarida mafkuraviy, g'oyaviy tahdidlar qatori informatsion xurujlarning tobora kuchayib borayotganidan ogohlantirib, barchamizni yuksak hushyorlikka chaqiradi. Chunki bu xuruji qo'l bilan ushlab, eng rivojlangan texnologiyalar bilan nazorat qilib bo'lmaydi. U ko'rinishidan yetkazgan kichik zararini ohir oqibat qoplab bo'lmaydigan jiddiy hatarlardan biridir. Shu bilan birga axborot olami orqali "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi tahdidlarning yuzaga kelishi barchamizdan yuksak hushyorlikni talab etadi.

"Yangi tahdidlar, jumladan, "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb



etmoqda [1]. Bu ommaviy madaniyat ortida esa axloqiy buzuvchilik va zo'rvonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, uning ortidan moddiy manfaat topish, xalqning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini asta-sekin egallab olish va q'oporiyga qaratilgan tahdid yotadi.

Hozirgi davrga kelib zamonaviy ma'naviy tahdidlar ko'lami kun sayin ortib borayotgani barchamizga ma'lumdir. Ma'naviy tahdid tushunchasi, ijtimoiy falsafiy va ilmiy adabiyotlarda tarixiylik nuqtayi nazaridan "tahdid", "xavf-xatar" kabi atamalar bilan tilga olinadi. Bu borada Islom Karimov "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izidan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman [2]" degan edilar. Shu bilan birga, ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilish mamlakatimizda umumilliy ma'rifiy kurashga aylandi. Ma'naviy tahdidlarga ya'ni "fikrga qarshi fikr, g'oya va jaholatga qarshi ma'rifat bilan" tamoyillari bilan kurashish mumkin. Ushbu tamoyil hozirgi ma'naviy-mafkuraviy faoliyatimizda, mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lom asrashda metodologiya vazifasini o'tamoqda. Bunda har bir kishida asosli mustaqil fikr hamda yuksak dunyoqarashni shakllantirish kerak.

Mafkuraviy tahdidlarning ham kun sayin yangidan-yangi tarmoqlari vujudga kelmoqda. Ayniqsa, din niqobidagi mafkurachilar. Ularning asosiy quroli bu insonlar ongiga ta'sir qilishdir. Bu kimsalar ularga o'z g'oyalarini singdirish orqali o'zlarining birlamchi siyosiy maqsadlarini amalga oshiradi. Siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda esa ular internet tarmog'iga murojaat qilishadi. Buning isbotini esa biz dunyoga mashhur bo'lgan xalqaro diniy terroristik tashkilot "al-Qoida" misolida ko'rishimiz mumkin.

Mutaxasislarning qayd etishicha, "al-Qoida" terrorchi tashkiloti o'z

targ'ibotining 99 foizini internet orqali amalga oshiradi. 2011-yilning iyun oyida "al-Qoida" tashkiloti internet orqali terrorchilik amaliyotini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z gumashtalariga yetkazishga uringani fosh etildi. Gap shundaki tashkilotga taalluqli bo'lgan veb-sahifalarning birida foydalanuvchilarga yuklab olish uchun qiziqarli jurnal taklif etilgan bo'lib, uning sahifalaridan oddiy oshxona sharoitida qo'lbola bo'mba tayyorlashni o'rgatuvchi ko'rsatmalar joy olgan. Shu orqali tashkilot butun dunyoda o'z a'zolariga o'zini- o'zi portlatish amaliyotlarining so'nggi uslublari haqida ma'lumotlar yetkazib bergan [3].

Shu bilan birga internet tarmog'i orqali yosh bollarga ham maxsus xudkushlik amaliyotini targ'ib etuvchi multfilmlar ham ishlab tarqatilgan. Bu kabi filmlardan maqsad bolalarga terrorchilar talqinidagi "jihod" harakatlariga nisbatan moyillik uyg'otish va kelajakda buzg'unchilar saflarini ana shunday yoshlar bilan to'ldirish asosiy maqsadlari bo'lgan. Qachonlardir manashu interner tarmog'i axborot olamida dastlab ma'lumotlar matn ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib internetda nafaqat matn, balki fotolavha, vidiolavha va ovoz uyg'unligidagi ma'lumotlar joylashtirilib, ularni elektron manzillarga tezlik bilan yetkazilmoqda. Ushbu qulaylikdan, taassufki, terrorchi shaxslar ham o'z manfur maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanmoqda.

Mutaxasislar kompyuter jinoyatchiligining quyidagi turlarini farqlaydilar: 1) terrorizm; 2) josuslik (xalqaro va sanoat sohasidagi); 3) ekstremistik guruhlar faoliyati (siyosiy, ekologik va diniy yo'nalishlardagi); 4) uyushgan jinoyatchilik va qalloblik; 5) xakerlar faoliyati (alohida uyushgan va uyushgan guruhlar) [4]. Hamda yirik miqyosdagi terrorchi guruhlarining internet tizimidagi qo'poruvchilik harakatlari insoniyatni tashvishga solmoqda. Chunki bepayon bo'lgan internet olamida ularning izini topish g'oyat murakkabdir. Shu tariqa



axborot yovuz kuchlar, uyushgan jinoyatchi guruhlar va jahon terrorizmi qo'lida xavfli va zamonaviy qurolga aylanib qoldi.

Ma'lumotlarga qaraganda, axborot tahdidini uyushtirish ustida 120 ga yaqin davlat "hamjihatlik" bilan ish olib boryapdi. Demak, yagona axborot makonini yaratish, undan axborot tahdidi yo'lida foydalanish shu darajaga yetdiki, axborot maydonidagi xuruj yadro pologonlaridan ko'ra, xavfliroq bo'lib qoldi. Bugungi kunda 20 ga yaqin davlatda yadro quroli ishlab chiqarish borasida sa'y-harakatlar davom etayotgan pallada, axborot tahdidi bilan 120 ga yaqin davlatning jiddiy shug'ullanishi dunyoni yadro urushidan ko'ra axbotot xuruji talvasaga solayotganidan dalolat beradi [5].

Yirik miqyosdagi terrorchi guruhlarining internet tizimidagi qo'poruvchilik harakatlari insoniyatni tashvishga solmoqda. Chunki bepayon bo'lgan internet olamida ularning izini topish g'oyat murakkabdir. Shu tariqa axborot yovuz kuchlar, utushgan jinoyatchi guruhlar va jahon terrorizmi qo'lida xavfli va zamonaviy qurolga aylanib qoldi.

Axborot xuruji aslida axborot urushidir. Bir so'z bilan aytganda bu kabi johil kimsalarning siyosiy maqsadlari yo'lida ommaviy axborot vositalari orqali, aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishdagi chalg'ituvchi usullardan foydalanishadi. Shu bilan birga dezinformatsiya, maqsadli, agressiv ruhdagi

informatsiyani tarqatib aholi dunyoqarashini noto'g'ri yo'nalishga solib yuborish va tarixiy haqiqatga xilof bo'lgan ma'lumoylarni tarqatishadi.

Bugungi kunda yoshlarning aksaryati internetdan foydalanishyapdi, bo'sh vaqtlarini internet klublarda o'tkazishyapdi. Bu quvonarli, ammo yoshlarimiz bizni ezgu g'oyalarimizga qarshi bo'lgan na'zi bo'xton gaplar, axloqsizlik, bexayolik illatlarini internet orqali ko'rib, bilib-bilmay ularning ta'siriga tushub qolmoqda. Shu bilan birga mamlakatning kelajagi yoshlar qo'lida bo'lganligi uchun ularning tarbiyasiga katta e'tibor qaratishimizni bildiradi.

Bolalar tarbiyasiga oilaning 50%, ommaviy axborot vositalarining 30%, maktabning 10%, hamda ko'chaning 10% tasiri bor [6]. Shu o'rinda aytmog'imiz darkorki axborot olamining bolalar tarbiyasidagi ahamyati juda ham yuqori o'rinda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimiz turli xildagi axborotlarni farqlay olishi va mustaqillik g'oyalariga sodiq bo'lishi bilan birga axborot xurujlaridan ogoh bo'lishi lozim. Har bir masalaga o'z milliy manfaatlarimizdan kelib chiqib yondasha olsak, shundagina axborot urushi qurboni bo'lib qolmaymiz. Eng asosiysi buyuk kelajagimizning haqiqiy bunyodkoriga aylanamiz.

References:

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.- T.: " O'zbekiston". 2017.-27 b.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.- T.: " Ma'naviyat" ,2015. 13-14- betlar.
3. Tulepov Aydarbek. Internetdagi tahdidlardan: himoya yordamchi o'quv qo'llanma/ A.Tulepov.- Toshkent: Movarounnahr, 2015.- 38 b.
4. "Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда маъннавий-мафкуравий асослари" мавзуидаги республика илмий-услубий конференцияси материаллари. - Т.: "Муҳаррир", 2010. - 79 б.
5. Акрамова Ш. Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш омиллари. Республика манавият тарғибот маркази. – Тошкент: "Маънавият", 2015. – 10



6. Tulepov Aydarbek. Internetdagi tahdidlardan: himoya yordamchi o'quv qo'llanma/
A.Tulepov.- Toshkent: Movarounnahr, 2015.- 225 b.